

## Adabiyot fanida “Savol qani?”, “Teskari alifbo” metodlarini qo‘llashning afzalliklari

Uchtepa tumani 238-maktabning  
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

**Matkurbanova Dilfuza**

Tel.: 97-443-26-09

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada adabiyot fanida “Savol qani?”, “Teskari alifbo” kabi metodlarni qo‘llashning afzalliklari aytib o‘tilgan. Ayniqsa, o‘quvchilarni fanga qiziqtirishning har xil yo‘llari ko‘rsatib berilgan hamda rag‘batlantirish usullari haqida gap boradi.

**Kalit so‘zlar:** adabiyot fani, “Savol qani?”, “Teskari alifbo” metodlari, rag‘batlantirish usullari, “Eng chaqqon o‘quvchi”, “Eng zukko o‘quvchi”, “Eng bilimdon o‘quvchi” kabi kartochkalar.

Adabiyot fanini o‘qitishda har xil usullardan unumli foydalanish zarur. Ayniqsa, 5-sinf o‘quvchilariga turli xil metodlarni qo‘llash kerak. Chunki yosh qalblarning ko‘ngliga adabiyotni oshno qilish ham biz o‘qituvchilarning burch va vazifasidir. O‘quvchilarni 5-sinf paytidan adabiyotga qiziqtirsak, nur ustiga a‘lo nurdir. Ular fanni sevib o‘qisa, topshiriqlarni to‘liq ado etsa, shundagina biz darsda oldimizga qo‘ygan maqsadimizga erishgan bo‘lamiz. Buning uchun esa o‘qituvchi pedagogik mahoratga ega bo‘lishi, o‘quvchilarni faniga qiziqtira olishi lozim. Bunda turli xil metodlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Shunday metodlardan biri “Savol qani?” metodidir. Ushbu metod o‘quvchilarni zukkolikka chorlab, ularning fikrlash qobiliyatini o‘stiradi. Javob tayyor bo‘lgach, savol tuzish ular uchun oson tuyuladi, lekin savollarni har kim har xil har tuzishi mumkin. Savol tuzish ham o‘quvchining bilim doirasidan, fikrlash qobiliyatidan kelib chiqadi. Ushbu metodni qo‘llaganda darsda faol bo‘lmagan o‘quvchi ham faol qatnashadi. Sababi o‘qituvchi tomonidan “Qani kim tez savol tuzadi?”, “Kim birinchi bo‘lib javoblarga savol topadi?” kabi jumlar aytiladi. Yoki hammaga birdek topshiriq beriladi. Ya‘ni javoblar yozilgan tarqatmalar tarqatiladi. Hamma o‘quvchilar tezda topshiriqlarni bajarishadi. Bu usulning yana bir jihati shundaki, aynan dars boshida, “Yangi mavzu bayoni” qismida qo‘llanadi. O‘quvchi ham yangi mavzuni o‘zlashtiradi, ham topshiriq bajaradi va shunga yarasha rag‘batlantiriladi. Bu usul orqali o‘quvchilarning fanga qiziqishi ortib boradi. Rag‘batlantirish uchun har xil kartochkalar berishimiz mumkin. Masalan, eng birinchi va tez bajarib bo‘lgan o‘quvchilarga “Eng chaqqon o‘quvchi”, “Eng zukko o‘quvchi”, “Eng bilimdon o‘quvchi” kabi kartochkalarni berish mumkin. Bu narsa o‘quvchilarda ko‘tarinki kayfiyatni yuzaga keltiradi. Yana



bu usulning ahamiyatli tomoni shundaki, sinfni guruhlarga bo‘lib va bo‘lmasdan har biriga alohida bajartirib ham qo‘llash mumkin. Guruhlarga bo‘lganda ham o‘quvchilar jamoasi uchun tez harakat qilishadi. Alohida qo‘llashning ham har xil usulidan foydalanish mumkin. Masalan, “Tez yurar” o‘yinini o‘tkazamiz deb, birinchi qatordagi barcha o‘quvchilar o‘rnidan turg‘iziladi. Men javob aytaman, sizlar savol tuzasizlar, topshiriqni bajargan joyiga o‘tiradi, bajara olmagan o‘quvchi turgan holatda qoladi, deb har bir o‘quvchiga bittadan javob aytiladi. Keyin ikkinchi va uchinchi qatordagilarga ham xuddi shu tarzda davom ettiriladi. Buning natijasida, o‘quvchilarning ham eshitish, ham og‘zaki nutq ko‘nikmasi shakllanadi, ham darsni to‘liq o‘zlashtiradi. Buni yana boshqacha tarzda qo‘llashimiz mumkin. Ya‘ni har bir o‘quvchiga javoblar yozilgan tarqatma tarqatilib, yozma tarzda bajarish uqtiriladi. Bu usul orqali o‘quvchining yozma nutqi ham rivojlanadi. Har bir to‘g‘ri bajarilgan topshiriqqa 1 balldan qo‘yiladi. Guruhlarga bo‘lingan bo‘lsa, har bir guruhning umumiy to‘plagan ballari aytiladi va qaysi guruh g‘olib bo‘lsa, shu guruhga rag‘bat kartochkalari beriladi. Agar alohida berilgan bo‘lsa, har bir o‘quvchiniki alohida baholanadi, to‘liq va to‘g‘ri bajarganiga qarab, ball beriladi va rag‘batlantiriladi. Bu usulning yaxshi tomoni shuki, o‘qimaydigan o‘quvchini harakatga keltiradi. Savol tuzish uchun esa, albatta, javoblarni o‘qish muhimdir. Shuning uchun ham bu juda samarali metoddir. Javobni o‘qish kitobni, mavzuni o‘qishdir. Sababi javoblar aynan darslikdan olingan. Bu metodda bemalol darslikdan tashqari ma‘lumot ham berishingiz mumkin, lekin vaqtni ham rejalashtirish kerak. Ushbu metodni 5-sinf adabiyot darsligida berilgan Bobur. Ruboiylar (1-3-ruboiylar: “Yod etmas emish..”, “Tole yo‘qi...”, “Ko‘pdin berikim...”) mavzusi bo‘yicha quyidagicha qo‘llash mumkin.

“Savol qani?” metodi

t/r	Javoblar	Savollar
1	Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda tug‘ilgan.	
2	Bobur 12 yoshida podshoh bo‘lgan.	
3	U yoshligidan shijoatliligi va dovyurakligi sabab “Bobur” (yo‘lbars) laqabini olgan.	
4	Saltanat uchun kurashlar natijasida yosh Bobur vatanini tark etishga majbur bo‘ladi.	
5	U Hindistonda Boburiylar saltanatiga asos soladi.	



6	Boburning devonlaridan tashqari “Boburnoma” asari ham juda mashhur va qimmatli manba bo‘lib, dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan.	
7	Boburning otasi Umarshayx Mirzo Farg‘ona hokimi bo‘lgan, u kutilmaganda vafot etgan.	
8	Zahiriddin Muhammad Bobur 1530-yilning 26-dekabrida Agrada vafot etgan.	
9	Keyinroq uning xoki, vasiyatiga muvofiq, Kobulga ko‘chiriladi.	
10	Bobur ijodida ruboiy janri muhim o‘rin tutadi.	
11	Shoir ruboiylarining aksariyatida hasbi hol (boshidan o‘tgan voqealar)ni, ko‘nglidan kechirgan his-tuyg‘ularni o‘quvchiga lo‘nda, mazmunli va ta’sirli tarzda yetkazishga erishgan.	
12	Ruboiy arabchada “to‘rtlik” ma’nosiga ega.	
13	Ruboiy to‘rt misradan iborat bo‘lgan kichik she’riy janr.	
14	Ko‘pincha birinchi, ikkinchi, to‘rtinchi satrlari qofiyalanib (a-a-b-a shaklida) keladi.	
15	Ba’zan to‘rt satri ham qofiyalanishi (a-a-a-a) mumkin.	
16	Qofiya – misra oxiridagi ohangdosh so‘z.	
17	Radif – misra oxirida, qofiyadan keyin takrorlanuvchi so‘z.	
18	“Yod etmas emish...” ruboiysida g‘urbatta, mehnatta, albatta so‘zlari qofiyadir.	

19	<p>Yod etmas emish kishini g‘urbatta kishi, Shod etmas emish ko‘ngulni mehnatta kishi. Ko‘nglum bu g‘aribliqda shod o‘lmadi, oh, G‘urbatta sevunmas ermish, albatta, kishi. Boburning ushbu ruboiysida kishi so‘zi radif bo‘lib kelgan.</p>	
20	<p>Ushbu ruboiydagi g‘urbat so‘zi musofirlik, o‘z vatanidan uzoqda qolish ma’nosini anglatadi.</p>	
21	<p>Mehnat so‘zi esa mashaqqat ma’nosini bildiradi.</p>	
22	<p>G‘aribliq – musofirlik degani.</p>	
23	<p>Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi, Har ishnikni ayladim – xatolig‘ bo‘ldi. O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim, Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi?.. Ushbu ruboiyda balolig‘, xatolig‘, qarolig‘ so‘zlari qofiyadir.</p>	
24	<p>“Tole yo‘qi...” ruboiysidagi bo‘ldi so‘zi radif bo‘lib kelgan.</p>	
25	<p>Tole - baxt.</p>	
26	<p>Ruboiydagi sori so‘zi sari, tomon ma’nosini bildiradi.</p>	
27	<p>Ko‘pdin berikim, yor-u diyorim yo‘qtur, Bir lahza-yu bir nafas qarorim yo‘qtur. Keldim bu sori o‘z ixtiyorim birla, Lekin borurimda ixtiyorim yo‘qtur. Ushbu ruboiyda diyorim, qarorim, ixtiyorim so‘zlari qofiyadosh so‘zlardir.</p>	



28	“Ko‘pdin berikim...” ruboiysida yo‘qtur so‘zi radif bo‘lib kelgan.	
29	Bobur hayotiga bag‘ishlangan “Zahiriddin Muhammad Bobur. Yo‘lbars izidan” hujjatli filmi bor.	
30	Ushbu film O‘zbekiston kinematografiya agentligi tomonidan 2021-yilda ishlangan.	

Yuqorida berilgan “Savol qani?” metodining yana bir qulayligi o‘quvchilarning javoblarga bergan savollari har xil bo‘ladi. Masalan, 1- “Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda tug‘ilgan” degan javobga quyidagicha savollar berishadi: Bobur qachon tug‘ilgan? Yoki 1483-yil kim tug‘ilgan? Yoki Zahiriddin Muhammad Bobur qachon va qayerda tug‘ilgan? Bunday turli savollar boshqa javoblarga ham berilishi tabiiy. Sababi o‘quvchilarning fikrlashi bir-biridan farq qiladi. Aynan mana shu har xillik ham o‘quvchilarning so‘z boyligini oshiradi, fikrlash qobiliyatini, og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu metodning yana bir samarali tomoni o‘quvchilar nazariy ma‘lumotlarni ham o‘zlashtiradilar. Eng asosiysi, fanga qiziqmaydigan o‘quvchi ham topshiriqni bajaradi. Mavzuni hamma baravar o‘zlashtiradi.

Adabiyot fanini o‘qitishda foydali metodlardan yana biri “Teskari alifbo” metodidir. Ushbu metodni qo‘llash ham o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirib, ularni mulohaza yuritishga chorlaydi va lug‘at boyligini rivojlantiradi. Ayniqsa, adiblarning she‘rlarini o‘tganda ham qo‘l keladi. Sababi o‘quvchilar she‘rni diqqat bilan o‘qishga harakat qilishadi. Ushbu metodni darsning “Mustahkamlash” qismida qo‘llash joiz. Bu metod she‘rdagi so‘zlarni topish, savollarga javob berishda ham o‘quvchilarni o‘ylashga, fikrlashga undaydi. Bundan tashqari, she‘rning mazmuni ularning xotirasida to‘liq saqlanadi. Bu metodni ham har xil usulda qo‘llash mumkin. Masalan, sinfdagi o‘quvchilarni uchta guruhga ajratib, yoki juftlikda bajartirib, yoki individual, ya‘ni har bir o‘quvchiga bittadan savol berib, berilgan javoblari to‘g‘ri bo‘lsa, 1 balldan, noto‘g‘ri bo‘lsa, 0 balldan qo‘yilib boriladi. Topshiriq bajarilgach, ballar e‘lon qilinadi. Shunga qarab, o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. Yana bir foydali tomoni shundaki, boshqa fanlar bilan ham integratsiya qilinadi. Masalan, “V” harfiga qarajak, ona tili fani bilan bog‘langan. Bundan tashqari lug‘atlardan ham foydalanilgan bo‘lib, o‘quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Yozma berilganda topshiriqlarni bajarib bo‘lgach, o‘qituvchining o‘zi javoblarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aytib, izohlab ketishi kerak. Shunda xato qilganlar ham



to'g'ri javobni bilib olishadi. Bu usulda dars o'tish o'quvchilar uchun juda qiziqarli. 5-sinf adabiyot darsligida berilgan “Erkin Vohidov. “Tandir haqida ertak” she’ri” mavzusini “Mustahkamlash” uchun “Teskari alifbo” metodini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Erkin Vohidov. “Tandir haqida ertak” she’ri

**“Teskari alifbo” metodi**

1. Paqir nima? Ch \_\_\_\_\_
2. “Tandir haqida ertak” asari qaysi shaklda yozilgan? Sh \_\_\_\_\_
3. Chol va kampir hovlisi buzilishini eshitib, nimaga botdi? G' \_\_\_\_\_
4. Shoir Vatanimizning eng yuksak mukofoti - ... unvoni bilan taqdirlangan. O' \_\_\_\_\_
5. Darslikda shoir, yozuvchilarning asarlari oldidan beriladigan ruknlardan biri...Z \_\_\_\_\_
6. Tushib qolgan so'zni toping. Shunday ... - Sokin, bezavol Y \_\_\_\_\_
7. Kampir cholni chimchilab kulsa, ... cholga qilig'i. Nuqtalar o'rniga qo'yiladigan so'zni aniqlang. X \_\_\_\_\_
8. Tandir bitdi  
Va o'sha-o'sha  
Tong yorishar chog'ida har kun  
Osmon bo'yi tomlardan osha  
Ko'kka o'rlar ingichka tutun. Ushbu she'rdagi bog'lovchini toping.  
V \_\_\_\_\_
9. “Tandir haqida ertak”da nima buziladi? U \_\_\_\_\_
10. Chol va kampir yangi uyga ko'chsa ham, nima yo'qligidan qiynalishadi?  
T \_\_\_\_\_
11. Badiiy adabiyot quroli... S \_\_\_\_\_
12. ... - xalq deputatlari tuman kengashining oldingi nomi. R \_\_\_\_\_
13. Erkin Vohidovning poemalaridan birining nomi... Q \_\_\_\_\_
14. Loyiha ma'nosini bildiruvchi so'z... P \_\_\_\_\_
15. She'rlaridan birining nomi... O \_\_\_\_\_
16. Poemalaridan birining nomi ... N \_\_\_\_\_
17. Kichik ma'nosini bildiruvchi so'z.... M \_\_\_\_\_
18. Ikkovin ham tegdi tishiga  
“Ammo”, “...”, “Ha”, “Albatta”lar  
Xullas kalom, tandir ishiga  
Aralashdi oxir kattalar. Tushib qolgan so'zni toping . L \_\_\_\_\_
19. Shoirning onasi fuqarolar kengashida kim bo'lib ishlagan? K \_\_\_\_\_
20. Shoir bolaligida nimaning poyasini shimib, tilini qonatgan? J \_\_\_\_\_

21. Chol va kampirning nechta o‘g‘li bo‘lgan? I \_\_\_\_\_
22. Chol va kampir nima uchun musichadek bo‘lib qoladilar? H \_\_\_\_\_
23. Oppoq vanna,  
... rohat. Tushib qolgan so‘zni toping. G \_\_\_\_\_
24. Uy ham buzilar endi,  
Tan berdilar yana taqdirga.  
... o‘rgangan edi  
Parcha yerga, pastak tandirga. Tushib qolgan so‘zlarni toping F \_\_\_\_\_
25. -Chol pichoqni nima uchun charxlardi? E \_\_\_\_\_
26. Boshda hech kim qilmagan xayol,  
Proyektga qo‘shmagan axir...”  
Sabablarni tushunmadi chol,  
...larga ko‘nmadi kampir. Tushib qolgan so‘zni toping. D \_\_\_\_\_
27. She’rlaridan birining nomi... B \_\_\_\_\_
28. Boshqarmaga ...ga bordi chol,  
Raysovetga qatnadi kampir. Nuqtalar o‘rniga qo‘yiladigan so‘zni toping.  
A \_\_\_\_\_  
Guruhi \_\_\_\_\_ to‘plagan ball \_\_\_\_\_
- Javoblar: 1. Chelak; 2. She’riy; 3. G‘amga; 4. “O‘zbekiston Qahramoni”; 5. Zavqli mutolaa; 6. Yashar; 7. Xush keladi; 8. Va; 9. Uy; 10. Tandır; 11. So‘z; 12. Raysovet; 13. “Quyosh maskani”; 14. Projekt; 15. “Oqsoqol”; 16. “Nido”; 17. Mo‘jaz; 18. “Lekin”; 19. Kotiba vazifasida; 20. Jo‘xori; 21. Ikki; 22. Hovlisi buzilishini eshitib; 23. Gazxona; 24. Faqat ular; 25. Ermak uchun; 26. Dalil; 27. “Bolalik ekan-da...”; 28. Arz.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, har bir fanni o‘qitishda mavzuga mos metodlarni qo‘llash va ulardan unumli foydalanish zarur. O‘quvchilarni faniga jalb qila olish ham bir san‘at. Mahoratli o‘qituvchi buning uddasidan chiqadi. Mahoratli bo‘lish uchun esa o‘qituvchining o‘zi bilimli, kreativ fikrlaydigan bo‘lishi kerak. Dars mashg‘ulotlarida har xil yangi metodlarni qo‘llashi hamda o‘quvchilarni doimo rag‘batlantirib borishi shart. Asosiysi, o‘tilgan dars o‘quvchilarning butun umr yodida qoladigan bo‘lishi lozim. Shundagina har bir o‘qituvchi darsda qo‘yilgan maqsadiga erishadi.

